

YANGI O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI

Jumanov Xayitmurot Toshniyozovich

Nizomiy nomidagi TDPU "Ta'lim menejmenti" kafedrası dotsenti

Ulug'murodova Feruza Mardon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

Annotatsiya

Yangi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, uning yechimlari keltirilgan. Tadbirkorlik sub'ektlarini faoliyatini qaratilgan davlat chora-tadbirlari bayon qilingan. Yangi tahrirdagi Soliq Kodekslarida belgilangan imtiyozlar, soliq preferensiyalarining o'zgarishining tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta'sirlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, imtiyoz, soliq, investitsiyalar, subsidiya, kredit, tovar, liberallashtirish, xorij.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda farovonlik va taraqqiyotga erishish yo'lida tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashga muhim e'tibor qaratilgani bejiz emas. Zero, faqat shu yo'l bilan aholi farovonligi oshib, iqtisodiyot yanada mustahkamlanadi. Mamlakatimizda shu paytgacha tadbirkorlik faoliyatini boshlashni o'zi muammo edi, buning uchun 1,5–2 oy talab etilardi. Hozir esa, bu jarayon bir kunda hal bo'ladi.

Mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rnini ham ortib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-avgustda mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuv ham mamlakatimiz tadbirkorlari uchun juda muhim bo'ldi. Davlatimiz rahbari, avvalo, o'tgan yilgi uchrashuvdan beri bajarilgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tdi. Jumladan, biznes muhit yaxshilangani natijasida o'tgan bir yil davomida tadbirkorlar tomonidan 55 mingdan ortiq biznes uchun binolar qurilgan. Tushumlari 1 million dollardan oshgan tadbirkorlik sub'yektlari soni 5 mingga

ko‘payib, 26 mingga yetgan. Yana ming nafari tovar aylanmasini 1 milliondan 10 million dollargacha yetkazgan, 220 nafarining tushumlari esa, 100 million dollarga yetgan. Eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingga bo‘lgan, umumiy eksport hajmi 30 foizga ko‘paygan.

Tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 80 dan ortiq subsidiyalar joriy etildi. O‘tgan davrda ularga 2,3 trillion so‘m ajratildi. Keyingi 2 yilning o‘zida faqatgina xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga 500 million dollar mablag‘ yo‘naltirildi. Ular o‘z biznesini boshlashi, jumladan, kasb va tadbirkorlikni puxta o‘rganishi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

So‘nggi 5 yilda mamlakatimizda yosh tadbirkorlar 5 barobar ko‘payib, ularning soni 500 mingdan oshdi.

“Albatta, keyingi 3-4 yilda tadbirkor uchun kredit va subsidiya olish, litsenziya, ko‘chmas mulk va resurslarga ega bo‘lish, eksport kabi masalalarda ko‘plab yangi imkoniyat va sharoitlarni yaratdik. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xom-ashyo bo‘yicha mavjud cheklovlar, to‘siq va g‘ovlarning aksariyatiga barham berildi.

Bir narsani barchamiz aniq tushunib olishimiz lozim. Tadbirkorlarimizning ushbu murojaatlari – amaldagi islohotlarimiz ko‘zgusidir. Shu bois har bir vazirlik va idora rahbari, viloyat, tuman va shahar hokimlari kelib tushgan murojaatlarni o‘zlarining faoliyatiga berilgan baho, deb bilishlari, bundan to‘g‘ri xulosa chiqarib, mazkur yo‘nalishda keskin o‘zgarishlar qilishlari zarur va shart”.¹

Mamlakatimizda tadbirkorlar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda yengilliklar haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman:

- yosh tadbirkorlarga 540 mln so‘mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi 2022–2024 yillarda maxsus o‘quv kurslarini tamomlagan va sertifikatni qo‘lga kiritgan yoshlarga 540 mln so‘mgacha kredit beriladi. Kredit foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasida, 3 yil imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga ajratiladi;
- aholini tadbirlarkorlikka jalb qilish uchun subsidiyalar beriladi²;
- yengil konstruksiyali issiqxonalar uchun – BHMning 30 baravarigacha (9 mln so‘mgacha) hududida;
- sugorish vositalarini sotib olish uchun – BHMning 10 baravarigacha (3 mln so‘mgacha) manzilda;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-avgustda mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi.

² Huquqiy axbarot telegram kanali xabari

-urug'liklar va ko'chatlar sotib olish uchun – BHMning 3 baravarigacha (900 ming so'mgacha) hududida;

-ishsiz yordamlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari va tashki mehnat ko'chirmasidan qo'yib kelgan shaxslarga ta'minlash bandligini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadigan qishloq xo'jalik kooperativlari ustav fondiga ulush sifatda olish uchun – BHMning 10 baravarigacha (3 million so'mgacha)da;

-2025 yil 1 yanvargacha jismoniy shaxslarning shaxsiy xonadonlarida baliq yetishtirish yo'nalishini ishlab chiqish o'quv kurslarida o'qish xarajatlarini qo'plash uchun – BHMning 2 baravaridan oshmagan (600 ming so'mgacha) miqdorda bir martalik;

-tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish uchun ishga tushirish, shu jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftarlari" va "Yoshlar daftariga" ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni boshlash uchun - 7 million so'mga sotib olish uchun , xotin-qizlarga 10 million so'mgacha;

-tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz harakatlarga chorakorlik sub'ektlari sifatda davlat hisobidan o'tkazgandan o'tayotgan daromad stoli 3 oy mobaynida olingan bino va inshootlarning mulk to'lovini to'lash uchun – BHMning 10 baravarigacha (3 mln so'mgacha) vaqtida;

-kichik tadbirkorlarga moliyaviy yordamlar berish maqsadida "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'arma faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-150-son, 09.06.2022 y) qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2022 yil 1 iyuldan "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" tomonidan kichik tadbirkorlar loyihalariga banklarning 5 mlrd so'mdan, foiz stavkalari Markaz bankining asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun 3 yil muddatigacha kompensatsiya taqdim etiladi.³

Bundan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo'llash taqiqlandi. Muhim yangiliklardan biri – bu Oliy Majlis huzurida "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil institute" tashkil etildi.

Belgilangan chora-tadbirlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat va biznesning o'zaro hamkorligidagi

³ Kun.uz xabarlari

ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, davlat resurslaridan foydalanishning ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash doirasida umumiy e'tirof etilgan xalqaro standartlar asosida va qonunchilikni yanada liberallashtirish maqsadida bir qator qonunlar, shu jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Ma'muriy tartib-tamoyillar to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi yangi qonunlar qabul qilindi.⁴

Bunday chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasida tergov qilishni amalga oshirishda noqonuniy aralashish imkonini beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga ko'maklashishi bilan bir qatorda, xo'jalik sudlari tizimiga sud majlislarini audio va video qayd etish mexanizmlarini joriy etish, qabul qilingan qarorlarni veb-saytlarda e'lon qilinish va boshqa bir qator qulayliklar joriy etildi. "Elektron hukumat" tizimini joriy etish doirasida davlat organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarining vakolatli organlar bilan o'zaro hamkorligining bevosita muloqot qilmaydigan shakllarini kengaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlari markazlari orqali "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ro'yxati sezilarli kengaytirildi va hozirgi kunda ushbu markazlarda 100 tagacha xizmat turlari amalga oshirilmoqda⁵.

Ta'kidlash kerak, sohaga oid qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omili sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi ma'muriy g'ovlar va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish va iqtisodiyotimizning yanada jadallik bilan rivojlanishiga asos bo'lishi shubhasiz.

⁴ www.uzlidep.uz

⁵ www.spot.uz